

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARINING TINGLAB TUSHUNISH
KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH MASALASI
THE QUESTION OF THE FORMATION OF LISTENING COMPREHENSION
SKILLS OF STUDENTS IN NATIVE LANGUAGE EDUCATION

Qorabekova Kamola

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Karabekova Kamola

Student of Tashkent State University of

Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15590228>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishning ahamiyati, tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishning darsliklarda aks etishi va uni o'rgatishda qo'shimcha metodlar va usullardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Annotation: This article provides recommendations on the importance of forming students' listening comprehension skills, the reflection of the formation of listening comprehension skills in textbooks, and the use of additional methods and techniques in teaching it.

Kalit so'zlar: Tinglab tushunish, integratsiya, nutqiy ko'nikmalar, og'zaki nutq, yozma nutq.

Keywords: listening comprehension, integration, speech skills, oral speech, written speech.

Ona tili fanini takomillashtirish, o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida yangi yaratilayotgan darsliklarda turli xil metodlar, topshiriqlar aks etgan. Ushbu topshiriqlar bevosita o'quvchining nutqiy ko'nikmalarini va lingvistik bilimlarini shakllantirishga qaratilgan. Ma'lumki, ona tili fani barcha fanlarni o'rganish uchun asos vazifasini o'tab beradi. Darsliklarda ham fanning shu xususiyati inobatga olingan holda dars mavzulari boshqa fanlar bilan integratsiyalangan holda tashkil etilgan. Mavzularni o'zlashtirishda o'quvchilar o'qib tushunish, tinglab tushunish, og'zaki va yozma nutqini shakllantirib boradilar. Bu jarayonda dars jarayoni o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida amalga oshiriladi. O'qituvchi boshqaruvchi vazifasida, o'quvchi esa mashg'ulotlarni bajaruvchi vazifasida bo'lishi o'zlashtirish jarayonining samardorligini oshirishga xizmat qiladi.

Nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish bosqichma-bosqich uzluksiz ravishda amalga oshishi zarur. Jumladan, tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirib borish ham bundan mustasno emas. Dars jarayonida bunga erishish uchun quyidagi ketma - ketlik bajarilishi kerakligi ta'kidlanadi.

- 1) tinglashda kutiladigan qiyinchiliklar bartaraf etiladi;
- 2) audiomatnni birinchi eshitish bo'yicha ko'rsatma (topshiriq) beriladi;
- 3) tushunganlik topshiriq yordamida tekshirib ko'riladi;
- 4) ikkinchi marta eshitishga topshiriq beriladi;
- 5) tekshirib ko'riladi. [1:110]

Bunda o'quvchilar berilgan topshiriqni birinchi marta tinglaganda yaxlit tasavvurga ega bo'ladilar va o'zlashtirgan ma'lumotlari topshiriqlar bilan mustahkamlanadi. Ikkinchi marta

tinglaganda o'quvchilar ma'lumotni yaxlit emas qismlarga bo'lib anglab oladilar. Bu holatda o'quvchilarning ma'lumotni anglab olish ko'nikmasi bir pog'ona yuqoriga ko'tariladi. Birinchi bor tinglaganda yaxlit mazmun anglashilgan bo'lsa, ikkinchi bor tinglaganda anglashilgan yaxlit ma'noning ichki mohiyatini tushunib yetadi.

O'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish darslarni o'zlashtirishda birlamchi omil vazifasini o'taydi. Chunki o'qituvchi o'z darsini tashkillashtirganda, o'quvchi bilan muloqotga kirishadi. O'quvchilar ustozni anglab olishi, dars jarayonini o'zlashtirishi tinglab tushunish ko'nikmasining shakllanganlik darajasi bilan baholanadi. O'quvchilar tinglab tushunish ko'nikmalalarini shakllantirish orqali nafaqat dars jarayonini, balki boshqa turli nutqiy vaziyatlarni ham anglay olish, tahlil qilish, munosabat bildirish ko'nikmasiga ham ega bo'ladilar. Bundan tashqari tinglab tushunish ko'nikmasi boshqa nutqiy ko'nikmalar bilan uzviy bog'langan bo'lib, ularni rivojlantirishda ma'lum bir bosqichda o'quvchiga yordam beradi.

Tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishda, o'quvchi ushbu topshiriq bilan ilk bor yuzlashganda yuzaga keladigan muammolar: turli xil qo'shimcha ovozlari, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar, ovoz tonining baland-pastligi, nutqning aniq va ravon ifodalanmasligi kabi tinglab tushunishga halal beruvchi omillarni bartaraf etish zarur. O'quvchi o'zlashtirishi kerak bo'lgan ma'lumotlarda yuqorida bo'lgan kamchiliklar kuzatilmasa, o'quvchilar ma'lumotni tezda o'zlashtirib oladilar. O'zi anglagan mazmun bo'yicha taassurot olib fikrini og'zaki va yozma shaklda bayon qila oladilar. Agar yuqorida keltirilgan muammolar bartaraf etilmasa, adresant ma'lumotni to'la ololmaydi, ma'lumot to'liq bo'lmagach tahlil qilish va hukm chiqarish bosqichida kamchiliklar yuzaga keladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchi o'z nutqi ustida ishlashi, bundan tashqari darsliklarda aks etgan tinglab tushunish ko'nikmasi audio va videomatnning sifati yuqori darajada bo'lishi shart.

Ushbu ko'nikmani shakllantirishning ikkinchi bosqichi hisoblangan topshiriqlar bilan ishlash jarayoni juda muhim hisoblanadi. Dars jarayonida o'zlashtirgan ko'nikmasini baholash, tahlil qilish, ma'lumotni qay darajada qabul qila olganligini aniqlash uchun tinglab tushunish matni topshiriqlari muhim hisoblanadi. Topshiriqlar tuzilish jihatidan matnga mos, uning mazmunini anglab yetishga qaratilgan bo'lishi lozim. Berilgan topshiriqlar o'zida ijodiy va tanqidiy fikrlashga qaratilganligi, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi o'zlashgan ma'lumotni to'la anglashga yordam beradi. Shularni inobatga olgan holda yaratilayotgan darsliklarda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun o'quvchilar yoshiga mos audio va videomatnlar tanlab olingan. Ularni mustahkamlash topshiriqlari esa o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini o'stirishga, og'zaki va yozma nutqini shakllantirishga qaratilgan.

O'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish masalasi 7- sinf darsligida quyidagicha aks etgan:

“Sun’iy intellekt” audiomatnini tinglang va savollarga javob bering.

1. Aqlli kompyuter sizni qanday tanib oladi?
2. Sun’iy intellekt odamlardek haqiqiy ongga egami? Javobingizni izohlang.
3. Ayting-chi, hozirgi kunda sun’iy intellekt qaysi qurilmalarda bor?
4. Sun’iy intellekt qaysi kasblarning yo'qolib ketishiga sabab bo'lishi mumkin ekan? Bu fikrga qo'shilasizmi? Nima uchun?

1- topshiriq. “Sun’iy intellekt” audiomatnidani olgan xulosangiz asosida quyidagi jumalarni davom ettirib yozing. Fikringizni misollar bilan asoslang.

1. “YouTube”da aqlli kompyuter bor chunki...

2. Sun'iy intellekt insonlar kabi fikrlay olmaydi chunki...

3. Sun'iy intellekt rivojlanishi bilan bir qancha kasblar yo'qolib ketishi mumkin chunki...[2:9]

Darslikda aks etgan tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan ushbu topshiriqlar o'quvchi yoshiga mosligi, mavzu ko'lamining dolzarbligi, chuqur o'y va mulohaza yuritish zarurligi bilan boshqa topshiriqlardan ajralib turadi. Tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar aynan yuqoridagi kabi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Negaki, o'quvchilar yoshiga doir narsa va holatlarnigina eslab qola oladi, tanlangan matnning dolzarbligi o'quvchining tanqidiy fikrlashini ham shakllantiradi. Mavzuni mustahkamlovchi topshiriqlar ham matn ichidan olingan, o'quvchilardan shaxsiy munosabat bildirishga qaratilgan. Bu kabi topshiriqlar yangi mavzuni mohiyatini anglab yetgan holda anglash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari o'quvchilarning tinglab tushinish ko'nikmasini shakllantirish uchun quyidagi topshiriqlarni tavsiya qilish mumkin.

1- topshiriq. Tinglangan audio yoki video matn asosida qayta matn tuzing. Matnda su'niy intellektning inson hayotiga ta'siri va sizning hayotingizda sun'iy intellektning ahamiyati haqida o'z fikrlaringizni bayon eting. Matnni yozib bo'lgach og'zaki shaklda taqdimot qilib bering. Ushbu topshiriq o'zlashtirgan ma'lumotni qayta yozishga undovchi, xotirani mustahkamlashga, bundan tashqari tanqidiy va ijodiy fikrlashga undovchi topshiriq bo'lib, o'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini shakllantirishga xizmat qiladi. Qayta yozish mashqlari o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri ekan, o'quvchi o'z matnida ijodkor nazarda tutmagan fikrlarni ham matn ichiga olib kirish imkoniga ega bo'ladilar.

2- topshiriq. "Xarita" metodi. Tinglangan audiomatnda berilgan faktlarni aniq eslab qolishingiz uchun o'zingizga qulay bo'lgan xarita chizing. Xaritangiz jadval, baliq skaleti, turli diagrammalar shaklida bo'lishi mumkin. Ushbu topshiriqda o'quvchi o'zi muhim deb bilgan ma'lumotni o'zi istagan darzda dekodlash imkoniga ega bo'ladilar. O'quvchilar o'z ijodkorligi va salohiyatidan kelib chiqqan holda faktlarni yaxshi eslab qolishi uchun o'zlariga qulay bo'lgan yo'nalishlarni o'zlari belgilaydilar. O'quvchilar bu metod orqali o'zlashtirgan ma'lumotlarni eslab qolish, ularni qayta tahlil qila olish uchun o'z yo'nalishiga ega bo'ladilar.

3- topshiriq. "Debat" metodi. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi guruh tinglangan audiomatndan olingan xulosalarning ijobiy tomonlari haqida bahs yuritisa, ikkinchi guruh uning salbiy tomonlarini yoritib berishi kerak bo'ladi. Yakunda ikki guruhning olgan xulosalari umumlashtirilib yaxlit hukm chiqariladi. Ushbu topshiriq o'quvchilarning guruhlarda ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilar tanqidiy fikrlash orqali og'zaki nutqini rivojlantiradi.

4- topshiriq. "Eslab qol" metodi. O'quvchilar to'rt guruhga bo'linadilar. Har bir guruhdan bir ishtirokchiga o'qituvchi tomonidan tinglab eshittirilgan audiomatn qayta o'qib beriladi. Ma'lumotni qabul qilib olgan o'quvchi uni boshqa bir o'quvchiga yetkazadi. Oxirgi qolgan o'quvchi tinglagan ma'lumotini qay shaklda qabul qilib olgan bolsa matn shaklda uni qog'ozga tushirib beradi. O'qituvchi tomondan asl matn bilan solishtirilib har bir guruhdan qancha ma'lumot yetib kelganligi umumlashtirilib xulosa chiqariladi.

References:**Используемая литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qo'zilyeva Sh. O'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish zarurati va ahamiyati// Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar ISSN 2181-1709 (P); 2181-1717 (E) . 2023, 12-son. 250-b.
2. Парпиева, М. М. (2017). Речевые ситуации в обучении иноязычному говорению. *Вопросы науки и образования*, (3 (4)), 81-83.
3. Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –224 b.

INNOVATIVE
ACADEMY